



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

**ONLINE
CONFERENCE**

**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS
IN SCIENCE 2023 "**
**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE
CONFERENCE**



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"



**"INNOVATIVE
ACHIEVEMENTS IN SCIENCE
2023"**

Part 19

**RUSSIA 2023
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023: a collection scientific works of the International scientific conference (27th May, 2023) – Chelyabinsk, Russia : "CESS", 2023. Part 19 – 72 p.

Editorial board:

Martha Merrill, PhD Kent State University, USA

David Pearce, ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva, PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казахша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference " **INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023**". Which took place in Chelyabinsk on May 27, 2023.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023

© Authors, 2023



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

TABLE OF CONTENTS

Jurayeva Shalolakhan Khusanboyevna <i>L'ENSEIGNEMENT INTERACTIF</i>	6
Ташходжаева Дилярам Вахидовна, Камолиддина Бехзода <i>МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ НА ГЛАЗУРОВАННОЙ КЕРАМИКЕ ШАША</i>	10
Sultanova Saida <i>SCIENTIFIC AND THEORETICAL ANALYSIS OF THE EXISTENCE OF THE SENSE OF GUILT</i>	14
Мирзалиева Г.Р <i>ДИНАМИКА ФАУНЫ ПАРАЗИТИЧЕСКИХ НЕМАТОД ТОМАТА ПО ОСНОВНЫМ ФАЗАМ РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ ТЕПЛИЦ</i>	18
Mayunusova Noila <i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI VA UNING INNOVATSION FAOLIYATI</i>	24
Рузметов М ,Матчонов Б <i>XIX-XX АСРЛАРДАГИ ХИВА ШАҲРИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ-ТАРҲИЙ ТИЗИМИ</i>	28
Ахмедова Ф.А, Хабибуллина М.М <i>УСЛОВИЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ</i>	34
G.Bazarbaeva <i>RAQQAMLI IQTISODIYOT</i>	38
Jumayeva Rizvongul Muhiddinovna <i>INCONVENIENCE IN THE EDUCATION SYSTEM AND THEIR SOLUTIONS</i>	45
Isomov Bekmurot Sayfiddinovich ,Yoqubova Bashorat Akbar qizi <i>MAMLAKATNING IJTIMOIIY-IKTISODIY RIVOZHLANISHIDA OLIY TA'LIMNING O'RNI</i>	53
Shahnoza rajabboy qizi Jumaniyozova <i>QALQONSIMON BEZ KASALLIGIGA CHALINGAN BEMORLARNING KASALLIKKA MUNOSABATI</i>	60
Khudaybergenova Jamila Farakhat's daughter ,Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich Ataullayev Zakir Maksudovich <i>DEVELOPMENT OF STUDENTS' INDEPENDENT WORK SKILLS WITH VIRTUAL LABORATORY EXPERIENCES</i>	65
Iskandarova Shahnoza Rozimbayevna <i>TA'LIMDA YANGI ISLOHOTLAR VA ULARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI</i>	68
Abdullayev Ortiqboy Sindor o'g'li <i>ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF THE CENTRAL BANK IN THE FIELD OF DEVELOPMENT OF AN EFFECTIVE NATIONAL PAYMENT SYSTEM</i>	72
Исраилова Камилла Исмаиловна <i>ТИПОЛОГИЯ ВТОРОСТЕПЕННЫХ ЧЛЕНОВ ПРЕДЛОЖЕНИЯ</i>	77
Alijonova Sarvinoz Ravshanbek qizi, Asimov Alijon <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA SODDA RASMLI MASALALAR USTIDA IJODIY ISHLASH USULLARI</i>	84
Султонова Назокаат Отабек қизи <i>ОИЛАДАГИ МИЛЛИЙ ТАРБИЯДА ТОРТИНЧОКЛИК КОРРЕКЦИЯСИ ХУСУСИЯТЛАРИ</i>	89
Niholjonova Navbahor Inomjonovna <i>STORIES OF SADRIDDIN A'YNI</i>	94
Авлярова Наргиза Махмудовна <i>РАЗРАБОТКА ГАЗОКОНДЕНСАТНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ С ПОДДЕРЖАНИЕМ ПЛАСТОВОГО ДАВЛЕНИЯ</i>	99
Ш.Ш.Раджабов, М.Ш.Раджабова <i>РЕШЕНИЕ КРЫВЫХ ЗАДАЧИ УРАВНЕНИЙ ГРАНИЦЫ ДЛЯ</i>	103



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ТЕПЛОПЕРЕДАЧИ КРАЕВАЯ ПОЛЕВАЯ ЗАДАЧА В ДВИЖУЩЕМСЯ ПОЛЕ	
Bo'ronova shaxrizoda Komiljon qizi, Abloqulova Gulina Normamat qizi Sarifova Durdona Oybek qizi, Abdulhamidova Sevara Umidjon qizi QISHLOQ XO'JALIGINI JOYLASHTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	108
Ostanakulov Alijon SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE	114
M.Usmonov ANALITIK KIMYO FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIRI	121
Yusupov Ziyadulla, Sultanov Azizbek, Xursanov Fazliddin, Karimov Valijon SQUYOSH PANELI- ENERGIYANI SAQLASH BATTAREYASI SUV NASOSI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	125
Авазов Муродбек Шомуродович, Бабаджанова Наргис Рамзовна М.В.Ломоносова ВЗАИМОСВЯЗЬ СОЦИАЛЬНО ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ КОММУНИКАЦИИ В СЕМЬЕ С УРОВНЕМ БЛАГОПОЛУЧИЯ И ЖИЗНЕСТОЙКОСТИ (НА ПРИМЕРЕ СТАРШИХ ПОДРОСТКОВ ДИСТАНЦИОННЫХ СЕМЕЙ)	131
Normurodova Shaxnoza Shamsiddinovna INGLIZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	136
Sherqobilova Rayhon Jumayevna BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	140
Убайдуллаева Саломат, Алимжанова Хаётхон ОЦЕНКА РИСКА МАЛИГНИЗАЦИИ УЗЛОВОГО ЗОБА У ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ЙОДОДЕФИЦИТА	146
Чепель Евгения Анатольевна ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА И ПУТИ ОПТИМИЗАЦИИ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОГО И ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНА	149
S.Davletov ,R. Ro'zmetova XORAZM QISHLOQLARIGA OID KANSELARIYA HUJJATLARI	153
Кулдашев Фарид Гулом ўғли ОЦЕНКА КОНКУРЕНТНЫХ ПОЗИЦИЙ ПЛОДООВОЩНОГО ПОДКОМПЛЕКСА В РЕСПУБЛИКЕ	158
Abduraimov Sirojiddin Abdukarimovich, Xudoyqulova (Abduraimova) Dilobar Abdukarim qizi PEDAGOGIK TAJRIBA - SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	162
Дильдора Абдуллаева МЕЖДУНАРОДНЫЙ АРБИТРАЖ: ДЕЛЕНИЕ АРБИТРАЖА НА КОММЕРЧЕСКИЙ И ИНВЕСТИЦИОННЫЙ	166
Amirova Visola Oybek qizi SAVODGA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA ZONAVIY PEDTEXNOLOGIYA BILAN BIRGALIKDA O'YIN HAMDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH USULLARI	169
Husenova Gulshoda Sattorovna GEOGRAFIYA FANNINI O'RGATISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	175



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

MAMLAKATNING IJTIMOYIY-IKTISODIY RIVOZHLANISHIDA OLIY TA'LIMNING O'RNI

Isomov Bekmurot Sayfiddinovich

*Buxoro davlat universiteti, Buxgalteriya hisobi va
statistika kafedrasi dotsenti PhD*

Yoqubova Bashorat Akbar qizi

*Buxoro davlat universiteti, iqtisodiyot va turizm
fakultetining 3 -bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, xususan: iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'limning beqiyos o'rni, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ta'limning xalqarolashuvi hamda globallashuvi va boshqalar.

Tayanch iboralar: oliy ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, oliy o'quv yurtlari, inson kapitali, ta'limning globallashuvi.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-экономическое значение высшего образования. При этом анализируются основные направления развития высшего образования, в частности: несравнимая роль образования в экономическом развитии, диверсификация источников финансирования, интернационализация и глобализация образования и др.

Ключевые слова: высшее образование, социально-экономические изменения, высшие учебные заведения, человеческий капитал, глобализация образования.

Turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida oliy ta'limning roli tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarning tarqalishi bilan bog'liq ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ushbu texnologiyalarni o'zlashtira oladigan va ularni turli vaziyatlarda qo'llay oladigan yetarli miqdordagi mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. So'nggi yillarda iqtisodchilar jahon miqyosida ham, alohida mamlakatlar darajasida ham oliy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning holati va tabiatiga ta'sirini aniqlash va rolini baholash masalasini faol ravishda o'rganmoqdalar. Ayniqsa:

- iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'limning hal qiluvchi roli;
- moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;
- ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllariga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi (kompetensiyaga asoslangan yondashuv, yangi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

ko'nikmalarni shakllantirish zarurati, hayot davomida o'rganish qobiliyati, katta hajmdagi axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan ishlash qobiliyati, ijodkorlik va jamoada ishlash qobiliyati);

- ta'lim faoliyatining tashkiliy shakllarini o'zgartirish (universitet faoliyatini takomillashtirish, diversifikatsiya: parallel ta'lim, tarmoq universitetlari, masofaviy ta'lim);

- ta'limni baynalmilallashtirish (ta'lim mazmunini xalqaro miqyosda unifikatsiya qilish zarurati, diplomlarni tan olish);

- ta'limning globallasuvi (ta'lim xizmatlariga doir jahon bozorining shakllanishi, chet ellik talabalar sonining o'sishi, transmilliy, transchegaraviy ta'limning paydo bo'lishi, raqobatning kuchayishi va jahon universitetlari reytingi) va boshqalar olimlar tomonidan chuqur tahlil qilinmoqda.

Oliy ta'limning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyati, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyati, uning ijtimoiy, iqtisodiy, xavfsiz va boshqa tarkibiy qismlarining rivojlanishini ta'minlash bilan belgilanadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi (bu ijobiy, doimiy o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, zamonaviy va kelajak avlodlarning rivojlanish resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini muvofiqlashtirishni, ijtimoiy standartlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda, oliy ta'lim muassasalarining faoliyati tegishli bilim va malakalarga ega bo'lgan, doimo o'zgarib turadigan zamonaviy dunyoda ishlay oladigan, yangicha va ijodiy fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk avlodni shakllantirishga qaratilgan. Demak, oliygohlarning eng muhim missiyasi bilimli shaxsni yaratishdir. Chunki jamiyat taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy darajasi shunday darajaga yetganki, bunday barqarorlikni faqat oliy ma'lumotli shaxsgina ta'minlay oladi.

Zamonaviy globallashtirilgan iqtisodiyot yangi bilim va texnologiyalar tufayli rivojlanayotganini e'tiborga olishimiz kerak. Dunyo tobora raqobatbardosh bo'lib bormoqda va yangi o'yinchilar paydo bo'lmoqda. Bunday sharoitlar inson mehnatining xarakterini o'zgartiradi, demak, kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi. Zamonaviy mutaxassis o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishi lozim.

Innovatsion bilim va kasblarning yangi-yangi turlarining paydo bo'lishi oliy ta'lim tizimi oldiga yanada individuallashtirish, o'quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish talablarini qo'yimoqda. Boshqa tomondan, fanning istalgan sohasida shunchalik ko'p bilim va ma'lumotlar to'planganki, oliy o'quv yurtida o'qish davrida ularning barchasini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'zlashtirishning iloji yo'q. Bundan tashqari, har kuni yangi bilimlar yaratiladi, yangi axborot xabarlarini tarqatiladi va mutlaqo barcha bilimlarni o'zlashtirishga va barcha muhim ma'lumotlarni kuzatishga vaqt topa olmaymiz. Bunday sharoitda bo'lajak mutaxassislar aniq amaliy vaziyatda zarur bo'lgan bilim va ma'lumotlarni izlash, ularni qayta ishlash va yechimlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, oliy ta'limning roli tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki yangi bilim va ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha barqaror ko'nikma va qobiliyatlar aynan oliy o'quv yurtida o'qish jarayonida shakllanadi.

Binobarin, dunyoda bilim, ta'lim va ilm-fanning o'рни muttasil oshib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim yangi bilimlarni ishlab chiqaradigan, ta'lim bilimlarni ommalashtiradigan va birinchi navbatda shaxsning individual rivojlanishini ta'minlovchi soha sifatida rivojlanmoqda. Faqat ushbu sohaning ustuvor rivojlanishini e'tirof etgan va uni ta'minlay olgan davlat, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Tahlil qilingan ma'lumotlar ishonchli tarzda shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim ommaviylashib bormoqda va ko'plab mamlakatlarda maktab bitiruvchilarining yarmidan ko'pi oliy o'quv yurtlarida qabul qilinmoqda. Ko'p sonli mutaxassislarni tayyorlash kasb-hunar ta'limi tizimini aniq shaxsga qaratishni talab qilmoqda. Ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlashda ilgari erishilgan yutuqlar "bilim", "malaka" va "mahorat" bo'yicha baholansa, endilikda kompetensiyaga asoslangan yondashuv yutuqlarning asosi hisoblanadi. Ha, har bir mamlakat shaxsning qaysi asosiy kompetensiyalarida malaka darajalari, shuningdek, har qanday malakalar to'g'ridan-to'g'ri tavsiflanishini belgilaydi.


Bundan tashqari, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi [1,11modda]. Bugungi kunda yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari soni 170 tani tashkil etadi. Xorijiy universitetlar filiallari soni 31 taga etdi. Oliy ta'limda nodavlat sektori faol rivojlanmoqda, respublikada 27 ta xususiy universitet faoliyat ko'rsatmoqda. Universitetlarga qabul kvotalari bilan bog'liq vaziyat ham keskin o'zgarmoqda. 2017-yilgacha, uzoq yillar davomida 60 mingdan sal ko'proq kishi davlat oliy ta'lim muassasalari talabasi bo'lardi. O'zbekiston Statistika agentligi xabarlariga k'ora 2022-2023 o'quv yili boshida respublika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 million nafardan ortiqni tashkil qildi. Ulardan 544 mingtasi qizlar va 495 mingtasi esa o'g'illar.

O'tgan yili akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy o'quv yurtlari tomonidan Prezident qarorlariga muvofiq o'n minglab kvotalar ajratildi. Endi ularning o'zlari o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, qancha talabani va qanday



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

sharoitda qabul qilishlari mumkinligini hal qiladi. Shuningdek, joriy 2022/2023 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy oliy o'quv yurtlarida davlat granti asosida kadrlar tayyorlash uchun mingta o'rin ajratildi. Oliy ma'lumotga ega bo'lmagan hamda oila va xotin-qizlar masalalari davlat qo'mitasining tavsiyanomalariga ega bo'lgan ayollar uchun umumiy qabul parametrlaridan tashqari yana ikki mingta o'rin ajratiladi. Boshqa qo'shimcha kvotalar ham mavjud. Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish mazkur tizimning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. (3)



Manba: O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli farmoni. 1-Ilova. Toshkent. 2019-yil 8-oktabr.

Oliygoharda o'rta maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham hozirgi davrning dolzarb masalasi hisoblanadi. Mamlakatda 2030 yilga borib OTM qamrov darajasi 50 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Albatta, ommaviy oliy ta'lim bitiruvchilarning vaqtinchalik ishsizligi muammosiga ham olib kelishi mumkin, chunki, iqtisodiyotda ko'pincha etarli tajribaga ega bo'lmagan ko'plab bitiruvchilarni ishga qabul qilish muammosi mavjud. Shu bilan birga, bitiruvchilarning aksariyatini mustaqil ravishda haq



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

to'lanadigan ish bilan ta'minlash juda murakab. Shuning uchun o'z biznesini ochish yoki o'zi uchun ish o'rni yaratishga qaratilgan ta'lim tizimini yaratish, uni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyo postindustrial davrga qadam qo'ydi, bu davrda bilim va axborot barqaror rivojlanishni saqlashning asosiy vositasiga aylanadi. Hozirgi vaqtda barcha davlatlar, shu jumladan O'zbekiston ham, avvalgidan ko'ra ko'proq global muammolar, global iqtisodiy tendentsiyalar ta'siriga bog'liq bo'lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning globallasuvi bilan izohlanadi.

Yetakchi oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalarni o'qishga jalb qilishga ham katta e'tibor bermoqdalar. Shu bilan birga, ayrim fuqarolarimiz xorijda oliy ma'lumot olmoqdalar. Natijada, ta'lim xizmatlari importi ham shakllanmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar rivojlanish paradigmatlari insonni asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida tan oladi. Bunday sharoitda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, ta'lim muassasalarini yangi texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir mutaxassislar tayyorlash muammosi tobora oydinlashib bormoqda. Bunday mutaxassislar fundamental bilimlarga, yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim va ijodiy ishlar bilan shug'ullanishi kerak.

Hozirgi oliygohlar mutaxassislarni o'qitish uchun ko'p yo'nalishtirishli o'quv bloklarini (fundamental tayyorgarlik; kasbiy yo'naltirilgan ta'lim) birlashtiradigan yangi o'quv dasturlarini doimiy ravishda ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishni ta'minlashlari zarur. Oliy ta'lim sohasida ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish dinamikligi davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotlari rivojlangan mamlakatlar ta'limga sarflanadigan xarajatlarni muttasil oshirib bormoqdalar, chunki ta'lim, ayniqsa, oliy ta'lim ularning iqtisodiy o'sish strategiyasini amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Hozirgi paytda rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning 1,5-1,8 foizini oliy ta'lim tizimining faoliyatini qo'llab-quvvatlashga sarflaydilar.

O'zbekiston hukumati ham ta'lim sohasiga ustuvor ahamiyat beradi. Masalan, 2016 yilgacha ta'limga har yili davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil qilardi. [2, 8 s.]. Ammo 2022 yilda bu ko'rsatkich 25,6 foizni tashkil qildi. Ushbu mablag', oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasini bajarishga, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ilmiy loyihalarni hamda murakkab innovatsion va texnologik loyihalarni amalga oshirishga, ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bugungi kunda "oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi[3, 3 bob]. Oliy ta'limning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar omili sifatidagi o'rni har bir insonning turmush tarzini yaxshilash, shu jumladan, uning qadr-qimmatini oshirish yo'lida ham namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy insonni o'qitish, ilg'or bilim va texnologiyalarni o'zlashtirishini ta'minlash egn muhim masala. Oliy ma'lumotsiz insonning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish deyarli imkonsiz. Ta'lim xizmatlari bevosita inson kapitalini shakllantiradi. Oliy ta'lim inson salohiyatining intellektual kapitalini shakllantirish bo'yicha o'ziga xos missiyasi tufayli jamiyat boyligining miqdor jihatdan o'sishining asosiy omiliga aylanmoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishiga konseptual yo'naltirilganlik, inson kapitaliga doimiy ravishda sarmoya kiritishga talab qiladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali zamonaviy jamiyat, iqtisodiyotda va jamiyat hayotining boshqa sohalarida progressiv o'zgarishlarning dinamikligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, oliy ta'lim aholining ijtimoiy va samarali bandligini ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda. Mehnat unumdorligiga ta'siri qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali oliygohlar tizimi milliy daromadning ko'payishini, qashshoqlikning kamayishini, ishlab chiqarish va iste'mol madaniyati darajasini oshirishni, hayot sifatini oshirishni ta'minlaydi. Bo'lajak mutaxassislar amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilgan zamonaviy bilimlarni puxta egallashi sharti bilangina bunday natijaga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikning rolini qayta ko'rib chiqish zarur. Kuchli sanoat korxonalarining o'sishi va mustahkamlanishi, texnologik jarayonlarning murakkablashishi jarayonida ish beruvchilar o'zlari aniq sharoitlarda ishlashga tayyor, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash choralari ko'rishlari kerakligini tobora ko'proq anglab yetmoqdalar. Shuning uchun, korporativ ta'limning stajirovkalar, kurslar, treninglar, master-klasslar kabi boshqa yo'nalishlari ham rivojlanmoqda.

Bundan tashqari, oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari alohida ajralib turmoqda. Jamiyat nazoratini kuchaytirgan holda oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasi va o'zini o'zi boshqarishini kengaytirish, bilimni mustaqil baholash asosida o'qishga talabalarni qabul qilish, talabalarga kreditlar berish, ta'limni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning bozor modellaridan keng foydalanilmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy va strategik o'zgarishlar sharoitida oliy ta'limning o'rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy axborot jamiyatida oliy ta'lim tizimi nafaqat jamiyatning barcha soha



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

va tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, balki yangi bilim va axborotlar bilan ishlash bo'yicha barqaror ko'nikmalarni shakllantirishga yonaltirilmoqda.

Dunyoda ta'lim xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda. Shu bois oliy o'quv yurtlari oldida yangi vazifalar turibdi va ularning yechimi raqobatning samarali vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Xulosa sifatida yana shuni ta'kidlash mumkinki, oliygohlar, madaniyat muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sport tashkilotlari, banklar, firmalar bilan hamkorlik qilmoqdalar. Bu esa bilimlarni, tajriba turlarini, madaniyatni o'rganish uchun integratsion tizim sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (11- modda). Toshkent sh.,2020-yil.

2. Узбекистан. Обзор системы высшего образования. Erasmus. Февраль 2016 г. 8 с. (http://eacea.ec.europa.eu/education/Eurydice/euryedia_en.php)

3. O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni. Toshkent. 2019-yil 8-oktabr.

4. Isomov B.S., Dilova N.G., Saidqulova F.F., Jo'rayev A.T. Voprosi sovershensstvovaniya sistemi obrazovaniya. Monografiya. "Durdona". Buxoro.2021 yil.143 c.



**QALQONSIMON BEZ KASALLIGIGA CHALINGAN BEMORLARNING
KASALLIKKA MUNOSABATI**

Shahnoza rajabboy qizi Jumaniyozova

*Urganch Davlat Universiteti Psixologiya
(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi magistranti*

Annatsiya: *Ushbu maqolada qalqonsimon bez kasalligiga chalingan bemorlarning JSST statistikasi bo'yicha ma'lumotlar, mamlakatimiz hududida kasallikning tarqalishi, kasallikka chalingan bemorlarning kasalligiga munosabati, bir qator olimlar tomonidan bemorlarning kasallikka munosabati qanday turlarda bo'lishi o'z ilmiy izlanishlari natijalari bayon qilingan.*

Аннотация: *В данной статье информация о статистике ВОЗ больных с заболеваниями щитовидной железы, распространение заболевания на территории нашей страны, отношение больных заболеванием к своему заболеванию, результаты их научных исследований о типах отношения больных болезни рядом ученых описаны.*

Annotation: *In this article, information about the WHO statistics of patients with thyroid diseases, the spread of the disease in our country, the ratio of patients with the disease to their disease, the results of their scientific research on the types of attitudes of patients with the disease are described by a number of scientists.*

Kalit so'zlar: *senzitiv, emotsional, intellektual, do'stona reaksiya, Tinch reaksiya, anglanmagan reaksiya, gumonsirovchi reaksiya, Sarosima, vahimali reaksiya, buzg'unchi reaksiya, kompensatorli xarakterli, psevdokompensatsfli xarakterli, autieatsiya bilan diskomfortdan qochish, nevroitik reaksiyalar.*

Ключевые слова: *чувствительная, эмоциональная, интеллектуальная, дружелюбная реакция, спокойная реакция, неосознанная реакция, подозрительная реакция, спутанность сознания, боязливая реакция, деструктивная реакция, компенсаторный характер, псевдокомпенсаторный характер, избегание дискомфорта с аутией, невротические реакции.*

Keywords: *sensitive, emotional, intellectual, friendly reaction, Calm reaction, unconscious reaction, suspicious reaction, Confusion, fearful reaction, destructive reaction, compensatory character, pseudocompensatory character, avoidance of discomfort with autieation, neurotic reactions.*

Bugungi kunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) yod tanqisligini o'tkir global tibbiy-ijtimoiy va demografik muammo deb hisoblaydi, chunki,